

TALABALARDA BOSHQARUVCHANLIK XUSUSIYATIGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLARNING GENDER JIHATLARI

Masharipov Kamolbek Umarbek o‘g‘li

Toshkent davlat texnika universiteti assistent o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mavzuning dolzarbili. Talabalar o‘rtasida liderlik namoyon bo‘lishining gender xususiyatlari muammosining ilmiy ishlanishlari hozirgi vaqtida mahalliy olimlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topmagan va hali ham yaxshi o‘rganilmagan. Shu nuqtai nazardan, jamiyatimizda oliy ta’lim muassasasi yoshlarni ijtimoiylashtirishning ustuvor yetakchi tashkilotlaridan biridir. Talaba yoshlarning hozirgi avlodini o‘rganish va yetakchilarni tarbiyalash ijtimoiy faol talabalar orasida bugungi liderlar kelajakda o‘zlarini jamiyat va uning ijtimoiy institutlari bo‘lgan yetakchi, jamoat va siyosiy lider sifatida ko‘rsatishlari mumkinligida ko‘rinadi. Talaba yoshlar jamiyatning hayotiy kuchi, energiya, sarflanmagan intellektual va jismoniy kuchlar to‘plami bo‘lib, ularni to‘g‘ri yo‘naltirish orqali jamiyat hayotini yoshartirish va qayta tiklash mumkin. Talabalar o‘rtasidagi boshqaruv faoliyatida gender xususiyatlarning namoyon bo‘lish muammosi bo‘yicha hal qilinmagan nazariy va amaliy masalalar tadqiqot obyekti, predmetini tanlashga, maqsadlar, vazifalarni belgilashga va farazlarni shakllantirishga yordam berishi bilan tavsiflanadi.

Kalit so‘zlar:yetakchilik, qobiliyat,liderlik, talaba, universitet majmuasi, liderlik profili, boshqaruvchanlik.

Boshqaruv tuzilma sifatida: boshqaruvchi va boshqariluvchi bo‘laklarga ajratiladi. Boshqaruv o‘z tasarrufidagi boshqariluvchi bo‘lakka muntazam, rejali va maqsadga yo‘nalgan tarzdagi ta’sir kuchiga ega. Bunday o‘zaro faoliyat tizimning ishchanlik qobiliyatini ta’minlaydi. Boshqaruv bilimlari ko‘p jihatdan davr ehtiyojini aks ettiruvchi asosiy manba bo‘lib hisoblanadi. Boshqaruv jarayoni, bir tomonidan, tuzilmaning yaxlitligini ta’minsa, ikkinchi tomonidan, uni yanada takomillashtirish va rivojlantirish imkonini beradi.

Hozirgi davrda zamonaviy menejment vakili bo‘lgan rahbarning boshqaruvdagagi samaradorligi ma’lum bir jinsga mansub bo‘lgan individual psixologik xususiyatlar bilan emas, balki o‘z “men” ning kuchli va zaif tomonlarini bilish, afzallikklardan samarali foydalanish va kamchiliklarning salbiy ta’sirini minimallashtirish qobiliyati bilan belgilanadi. Bu erkaklarga ham, ayollarga ham tegishli. Muvaffaqiyatli rahbarlik modellari, jinsidan qat’iy nazar, bir vaqtning o‘zida erkaklar va ayollar uchun

ishbilarmonlik xatti-harakatlarining psixologik repertuariga ega bo‘lgan rahbarlarga xosdir.

Kundalik hayotda hech bir erkak ayol ruhiyatini tushuna olmaydi. Biroq, ayollar erkaklar ruhiyatiga yaxshiroq kirib borishni ajoyib tarzda uddalaydilar. Ayollar odatda erkaklarga qaraganda kech obro‘ martaba qilishga qaror qilishadi. Ko‘pincha kompaniyada o‘n yil o‘tgach, ular yuqori lavozimni egallashga qaror qilishadi, lekin rejalahtirilgan martaba uchun juda kech bo‘lishi mumkin! Aksariyat ayollar juda passiv. O‘zлari biror narsa qilish o‘rniga, ular hamma narsaning o‘z yo‘nalishi bo‘yicha ketishiga yo‘l qo‘yadilar. Ayollar professional muvaffaqiyatning hal qiluvchi omili ularning o‘zini o‘zi anglashi, deb hisoblashadi.

Shu maqsadda talaba yigit qizlar orasida metodik tahlillar o‘tkazildi va natijalar quyidagicha tahlillarda isbotini topdi.

Tadqiqot metodikalarining korrelyatsion tahlili natijasi yigitlarning misolida

Ko‘rsatkichlar	Maskulinlik	Femininlik	Asosiy indeks	Jarikov	Altruzim-egoizm	Jarayon-natija	Ozodlik-hokimiyat	Mehnat-pul	Samarali liderlik qibiliyatları
Maskulinlik	1	0,155	-0,626**	0,032	-0,048	0,048	-0,105	0,105	-0,017
Femininlik		1	0,674**	0,078	-0,019	0,019	-0,077	0,077	-0,127
Asosiy indeks			1	0,038	0,021	-,0021	0,018	-0,018	-0,088
Jarikov				1	-0,145	0,145	-0,352*	0,352*	0,129
Altruzim- egoizm					1	-1,000**	0,070	-0,070	0,235
Jarayon-natija						1	-0,070	0,070	-0,235
Ozodlik-hokimiyat							1	-1,000**	0,310
Mehnat-pul								1	-0,310
Samarali liderlik qibiliyatları									1

Natijalar tahliliga ko‘ra metodikalar o‘rtasida katta farq kuzatilmadi. Maskulinlik, femininlik, asosiy indeks shkalalari bilan Jarkov metodikasi, alturizm-egoizm shkalasi, jarayon-natija shkalasi, ozodlik-hokimiyat shkalasi, mehnat-oul shkalasi, samarali liderlik qobiliyatları o‘rtasida ishonch darajasidagi farq kuzatilmadi. Yigitlarda maskulinlik sifatlarining ortishi ulardagi muvozanatni saqlashga imkon beradigan asosiy indeks ko‘rsatkichining pasayishiga olib keladi, natijada ularda ayolarga xos sifatlar ham shakllanib boradi ($r=-0,626$, $p<0,01$). E.Jarikov va O.F.Potemkina metodikasining o‘zaro munosabatlarida Boshqaruvchanlik xusuiyati oshganda ozodlik-hokimiyat ko‘rsatkichi kamayishi kuzatildi ($r=-0,352$, $p<0,01$).Yigitlarda

boshqaruvchanlik xususiyatlari oshgan sari ularning ozodligi cheklanishi mumkin ya’ni atrofdagilarni diqqat markazida bo‘lishi ularning o‘zlarini istagan ishlarni qila olishmaydi. Alturizm- egoism xususiyati kuchaygan vaqtida jarayon-natija ko‘rsatkichlari pasayishi mumkin ($r=-1,000$ $p<0,01$). Yigitlarning o‘zlarini ehtiyojlarini o‘ylashi va harakat qilishi boshqaruv faoliyatida jarayon natijaga ta’siri kuzatiladi. Bunda ular faoliyatiga ta’sir qilivchi harakatlar bilan faqat o‘zini ehtiyojlarini o‘ylab harakat qilolmasligi va ortiqcha egoistlikka berilmasligi ma’lum bo‘ldi. Ozodlik hokimiyat xususiyati oshishi mehnat va pulga munosabatlarda o‘zgarishga sabab boladi ($r=-1,000$ $p<0,01$) Yigitlar qanchalik darajada ozodlikka intilishi mehnat unumdorligini pasayishi va pulining yo‘qolishiga sabab bo‘ladi. Faoliyati davomida o‘zi xohlagancha harkat qilishi mehnat unumining pasayishiga va moddiy ahvolning yomonlashuviga, o‘z navbatida qo‘l ostidagilar va atrofdagi kishilar tomonidan e’tiborning kamayishiga olib keladi.

Gender tenglikni ta’minalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, parlament yuqori palatasida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasining Gender tenglikni ta’minalash masalalari bo‘yicha komissiyasi, Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minalash masalalari bo‘yicha maslahat-kengashlari, Respublika xotin-qizlar jamoatchilik kengashi tashkil etildi¹

Tadqiqot metodikalarining korrelyatsion tahlili natijasi qizlarning misolida

Ko‘rsatkichlar	Maskulinlik	Femininlik	Asosiy indeks	Jarikov	Altruzim- egoizm	Jarayon-natija	Ozodlik-hokimiyat	Mehnat-pul	Samarali liderlik qibiliyatları
Maskulinlik	1	0,089	-0,800**	0,173	0,160	-0,089	0,173	-0,173	0,058
Femininlik		1	0,527**	-0,084	0,226	-0,148	0,020	-0,020	0,110
Asosiy indeks			1	-0,198	-0,001	-0,013	-0,136	0,136	0,017
Jarikov				1	-0,050	0,080	-,0019	0,019	0,067
Altruzim- egoizm					1	-0,968**	0,483**	-0,483**	0,126
Jarayon-natija						1	-0,483**	0,483**	-0,132
Ozodlik-hokimiyat							1	-1,000**	0,111
Mehnat-pul								1	-0,111
Samarali liderlik qibiliyatları									1

¹Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.1-jild. – T.: «O‘zbekiston», 2017. – 510 b

Tahlil natijalariga ko‘ra qizlarda maskulinlik xususiyatining oshishi asosiy indekdagi muvoznatni kamayishiga sabab bolishi kuzatildi ($r=-0,800$, $p<0,001$), qizlarda feminlik oshgan taqdirda asosiy muvozat yaxshilanishi kuzatildi ($r=0,527$, $p<0,01$).

Qizlarda ayollarga xos sifatlar ortsa asosiy indeks ham ortadi. Asosiy indeks oshsa ma’lum darajada erkaklarga xos sifatlar shakllanishiga sabab bo‘ladi

Qizlarda alturizm-egoizm kuchaysa jarayon-natija kamayishi kuzatildi ($r=-0,968$, $p<0,01$) bundan shuni kuzatish mumkinki, qizlarning keragidan ortiq boshqa odamlarga yordam berishi yoki egoistlik xususiyatlari oshishi jarayon natijani kamayishiga sabab bo‘ladi; Qizlarda alturizm-egoizm kuchayganda ozodlik-hokimiyatga intilish muvozanatga kelishi kuzatildi ($r=0,483$ $p<0,01$) qizlarda egoistlining oshishi ularning erkin harakat qilishiga sabab bo‘lishi va rahbar lavozimlarda ishslash imkoniyatlarini oshiradi; alturizm-egoizm kuchaygan holatda mehnat-pul munosabatlari kamayishi kuzatiladi ($r=-0,483$ $p<0,01$)

Jarayon-natija sifatining ortishi ozodlik-hokimiyat sifatining pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin ya’ni qizlar qanchalik ko‘p natija uchun harakat qilgan holatlarda ularning ozodlik-hokimiyatga intilishi kamayishi kuzatildi. Qizlar o‘zлari istagandek bemalol harakat qila olmaydilar, har doim diqqat markazida bo‘lishadi. ($r=-0,483$ $p<0,0$) Jarayon natija sifatining ortishi mehnat-pul munosabatining muvozanatiga sabab bo‘lishi mumkin ($r=0,483$ $p<0,01$) qizlar jarayon yoki natija uchun qattiq harakat qilgan holatlarda mehnat-pul munosabatlari muvozanati yuzaga keladi. Ularning faoliyatlarida yuqori natijalar kuzatilib boshqaruv faoliyati samarali natija ko‘rsatadi. Ozodlik-hokimiyat sifatining ortishi mehnat-pul munosabatining kamayishini yuzaga keltiradi ($r=-1,000$, $p<0,01$) qizlar qanchalik o‘zлari istagandek yurishlari ularning faoliyatlariga ta’sir qilishi aniqlandi, atrofdagilar va qo‘l ostidagilar e’tiroziga sabab bo‘ladi. Boshqaruvchanlik imkoniyati kamayishi yuzaga keladi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, ayollar erkaklardan farqli o‘laroq, bat afsil va muvozanatlari yondashuvga ega, mayda-chuyda narsalarga e’tibor qilishadi: ular tafsilotlarni, voqealar tafsilotlarini yaxshiroq idrok etadilar va tahlil qiladilar, ular butunni uning tarkibiy qismlariga sinchkovlik bilan bo‘lishlari va o‘zini tutishlari mumkin, Yaxlit elementlarning mantiqiy tahliliga ayollar juda e’tiborli bo‘lishadi. Bunday differentsial tahlilning to‘liqligi va to‘g‘riligiga ko‘pchilik erkaklar erishib bilishmaydi. Boshqa tomondan, erkaklar hodisani bir butun sifatida taqdim etish, hodisaning strategik tendensiyalarini baholash va butunning qismlari o‘rtasida yaxlit munosabatlarni o‘rnatishga qodir. Majoziy qilib aytganda, ayollar daraxtlarni, erkaklar esa o‘rmonlarni ko‘radi. Ko‘pgina tadqiqotchilar haddan tashqari yumshoqlikni ishga xalaqit beradigan shaxsiy ayol fazilatlari bilan bog‘lashadi. Boshqa xususiyatlardan: aniqlik etishmasligi, haddan tashqari emotSIONallik, ishonchlilik. Intervyulardan birida

firma menejerlari ayollarning o‘zlari “hammaga yaxshilik qilish istagi”, “sabrsizlik, toqatsizlik, qo‘pollik”, “uzoq til”, “zerikarlilikka aylanib ketadigan ehtiyyotkorlik” kabi xususiyatlarni to‘siq deb atashgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” gi farmoni. 05.07.2017. PF-5106.
- 2.Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.1-jild. – T.: «O‘zbekiston», 2017. – 510 b
3. Б. Каримова, О.Абдусатторова, О. Ҳайитов, Гендер менежмент укув кулланма Т 2007
4. Володько В.Ф. «Основы менеджмента»
- 5.Чернобровкина А. «Гендерные аспекты менеджмента: женщины и мужчины руководители» 2001й
6. Ананьев Б.Г. Психология и проблемы человекознания